



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLİSH: YANGI PARADİGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATİSYASI

ISSN: 2181-1776

Yadgarova Ozoda Ibragimovna¹,

Abduraxmonova Nilufar Hayitmurod qizi²

¹ Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

² Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA KOMMUNIKATIVLIKNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH KO'NIKLAMALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kommunikativlikni rivojlantirish masalalari yoritib berilgan bo'lib bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning ahamiyatl yo'llari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, o'quvchilarda kommunikativlik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beruvchi kommunikativ treninglardan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zları: kommunikatsiya, communication, qobiliyat, o'qituvchini kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish, "train", "training", kommunikativ treninglar.

Hozirgi jadal globallashuv davrida oliy ta'limda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kommunikativligini oshirish dolzarb masala hisoblanadi. Chunki hozirgi davrda o'qituvchi faoliyatida uchraydigan kommunikativlik munosabatlarda so'z bilan og'zaki ta'sir etish nihoyatda xilma -xil bo'lib, bevosita pedagogik ta'sir ko'rsatishning nisbatan mustaqil ko'rinishini o'zida mujassamlashtiradi. Ayniqsa, pedagogik ta'sir etishni tashkilshtirishda so'zning ahamiyati bilan bog'liq bo'lgan pedagogik muomala madaniyatiga va o'qituvchining shirin so'zligiga alohida talablar qo'yiladi. Shu o'rinda kommunikativlik so'ziga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, avvalo, «Kommunikatsiya» atamasi fanga XX asrning boshida kirib kelgan. «Kommunikatsiya» lotincha "communication", "communico" - so'zlaridan kelib



chiqqan bo'lib, bog'layman, muloqot qilaman ma'nolarini anglatadi.¹ Ijtimoiy fanlarda kommunikatsiya birgalikda harakat qilish, o'zaro ta'sir haqidagi ilmiy bilim sohasi hamda ushbu jarayonlar va ularning natijalarini ifodalash uchun qo'llaniladi. Kommunikatsiya muammolariga tadqiqotchilar, ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan keyin qiziq boslashdi. Bunga yaqqol misol sifatida 1960-yillar boshiga kelib, falsafa va sotsiologiya ilmiy adabiyotlarida kommunikatsiya tushunchasining yuzdan ortiq ta'riflaridan foydalana boshlangan. Tasavvur hosil bo'lishi uchun mazkur ta'riflardan bir nechtasini keltirib o'tamiz:

- ❖ «Kommunikatsiya – bu murakkab dinamik tizimlar va uning axborotni qabul qilish, toplash, o'zgartirish imkoniga ega qismlari o'rtasida axborot almashinuvi».
- ❖ «Kommunikatsiya – bu axborotni o'ziga xos almashish, uning emotsiyal va intellektual mazmunini aks ettirish jarayoni».
- ❖ «Kommunikatsiya – insonlarning kongitiv va mehnat faoliyati jarayonida o'zaro munosabatlarga kirishishning o'ziga xos shakli».²

Ko'rinib turibdiki, bu ta'riflarda mazkur fenomenning ayrim jihatlarigagina urg'u berilgan. Shuning o'zi kommunikatsiyaning naqadar qamrovi keng va murakkab hodisa ekaniga ishoradir. Kommunikativlik turli olimlar tomonidan turlicha fikrlanadi va turli adabiyotlarda turlicha taxrirlangan va shulardan namunalar keltirib o'tamiz. Kanadalik sotsiolog Marshal Maklyuen fikricha, kommunikatsiya usulining almashishi tarixning rivojlanish bosqichlarini ifoda etadi. Shunga ko'ra u insoniyat rivojlanishning quyidagi davrlarini ajratgan: — og'zaki kommunikatsiya (bu davrda jamoa doirasida kommunikativ muhit kommunikantlarni bevosita har tomonlama qamrab olgan); yozma kommunikatsiya (yozilgan xabarlar vaqt va makon to'siqlarini kesib o'tgan); nashr-kommunikatsiya (kommunikantlarni yalpi qamrab olishning oshishi, «Gettenberg galaktikasi»ning yaratilishi, ya'ni bosma kitoblar chop etish texnologiyasining ixtiro qilinishi); multimedia kommunikatsiyasi (bevosita muloqotga global miqyosda kirishish).

O'qituvchi o'z faoliyatida o'quvchilarda kommunikativlik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish uning bugungi kundagi eng muhim sifatlaridan biridir. O'qituvchi tarbiyalanuvchilarining o'zaro tarbiyaviy ta'sirga ega ekanliklarini, ularning o'zaro kommunikativ munosabatlari hamda faoliyatları o'rtasidagi bog'lanishning mavjudligi, uning samaradorligini belgilashini unutmasligi shart. O'qituvchi sinf jamoasiga va alohida tarbiyalanuvchiga pedagogik ta'sir ko'rsatishida muvaffaqiyatlarga erishishi uchun, o'quvchilar orasida o'zaro pedagogik munosabatlar tizimini oqilona rejalashtirishi va psixologik muhitni ijobjiy tomonga o'zgartirishi zarur. To'g'ri tashkil etilgan va har jihatdan mukammal bo'lgan, yosh avlodning qalbi va ongini asrashga, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan pedagogik munosabatlar tizimini tashkil etish uchun o'qituvchi har bir o'quvchi ruhiyatini chuqur bilib olishi, ularning ichki imkoniyatlaridan xabardor bo'lishi, axborot berishi, fikr almashishi, ular qayg'usini, tuyg'ularini tushunishi va hamdard bo'lishi lozim.

¹ Emelyanov Yu.N. Kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish va takomillashtirish amaliyoti nazariyasi. - M.: Ta'lim, -1995

² Emelyanov Yu.N. Kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish va takomillashtirish amaliyoti nazariyasi. - M.: Ta'lim, -1995



Pedagogik munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun o‘qituvchi quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi lozim:

- o‘quvchilar bilan bo‘lajak munosabatni modellashtira olishi;
- munosabatda bo‘ladigan sinf jamoasi xususiyatlarini oldindan bilishi;
- bevosita samimiylar va hamjihatlikka asoslangan munosabat o‘rnatish;
- munosabatda ustunlikka ega bo‘lib, uni demokratik talablar asosida mulohazali boshqarish;
- munosabatning ijobjiy va salbiy jihatlarini uzluksiz tahlil etib borishi lozim.³

Pedagogning o‘qituvchilarda kommunikativlikni shakllantirish va rivojlantirishda kommunikativ tereninglardan foydalanishi ham samarali natijaga olib keladi. Shu o‘rinda trening tushunchasiga to‘xtalib o‘tsak. Trening tushinchasi ingliz tilidan kelib chiqqan bo‘lib, “train”, “training” ko‘plab ma’nolarga ya’ni: o‘qitmoq, tarbiyalamoq, (trenirovka) mashq qilmoq kabi ma’nolarga ega. Xususan, bu turli ijtimoiy faoliyat sohalariga shaxsni tayyorlashdan iborat bo‘lib, bunda shaxs yoki yaxlit guruhning muloqot sohasidagi bilimdonik darajasi maqsadga muvofiq tarzda maxsus mashqlar tizimi orqali rivojlantiriladi. Ya’ni u shaxsni ijtimoiy muloqotga oldindan maqsadli tarzda tayyorlaydi. Jumladan:

- bo‘lajak mutaxassislarni kelgusi faoliyatlarini samarali amalga oshirishga tayyorlash;
- rahbar kadrlarni samarali boshqarish usullariga o‘rgatish;
- ta’lim-tarbiya maskanlarida o‘zaro hamkorlik faoliyatini rivojlantirish;
- ijtimoiy muhitdagilari barcha shaxslararo munosabatlarda muloqot kompetentligini oshirish;

-ijtimoiy shaxslararo muloqot jarayonida yuzaga kelishi kutiladigan emotsiyonal zo‘riqishlarni oldini olish hamda mavjudlarini barqarorlashtirish va boshqalar.⁴

Trening insonlarda mavjud bo‘lgan xulq-atvori va faoliyatini boshqaruv modelini qayta dasturlash vositasidir. Shuningdek, trening, tashkilotni rejallashtirilgan faolligini, kasbiy bilimlarini oshiruvchi, ko‘nikmalarini yaxshilashga yo‘naltirilgan, yoki tashkilotning maqsadli faoliyati talablariga mos keluvchi ustakovkalar modifikatsiyasi va jamoaning ijtimoiy xulq-atvorini korreksiyalash uchun zarurdir. Quyida o‘quvchi kommunikativligini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradigan kommunikativ treninglardan namina keltiramiz:

Sharq bozori nomli treningning maqsadi: bo‘lajak o‘qituvchilarda muomala va muloqotga kirishuvchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘zaro tanishuv, diplomatik hamda o‘zaro foydali kelishuv o‘rnatishni o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish. Trening davomida har bir ishtirokchi uchun 4 tadan bir xil rangli stiker (yopishqoq qog‘ozlar), har bir ichtirokchi uchun 1 tadan ruchka, ichki qismi 15-20 santimetr chuqur bo‘lgan qog‘oz quti kabi resurslar o‘qituvchi yoki trener tomonidan ishtirokchilarga tarqtiladi.

³ Zaxarova T.V. Qobiliyat yondashuvi ta‘lim mazmunini yangilash bosqichi sifatida // KrasSU Axborotnomasi. Gumanitar fanlar. - 2006.

⁴ Znamenskaya S.V. Kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish muammosini o‘rganishning nazariy jihatlari // 48-ilmiy-uslubiy konferentsiya materiallari. - Stavropol: SSU, 2003



Kommunikativ trening jarayoni quyidagicha olib boriladi. Har bir ishtirokchiga to'rttadan stiker tarqatiladi va ularning har biriga ishtirokchilar o'z ismlarini yozib chiqishlari so'raladi. Shundan so'ng, har bir stiker ikki marta (yozuvni ko'rinchiligi darajada) buklangan va trener qo'lidagi qog'oz qutiga barcha buklangan stikerlar joylashtiriladi. Trener quti ichidagi stikerlarni yaxshilab aralashtirib yuboradi, so'ngra har bir ishtirokchidan quti ichidan qaramay 4 tadan stiker olishni so'raydi. Stikerlar tarqatib bo'lingach ishtirokchilardan stikerlarni ochib ko'rish lekin undagi ismlarni bir-birlariga ma'lum qilmaslik talab etiladi. Shart shuki, ishtirokchilar o'z ismlari yozilgan stikerlarni boshqa ishtirokchilardan so'rab topib olishlari kerak, lekin qo'lidagi ism yozilgan stikerlarning egasiga ularni shunchaki berib yubormasliklari lozim, buning uchun ular o'z ismi yozilgan stikerlarni topib olib kelishni, yoki kimda ekanligini ko'rsatishni so'rash yoki boshqa bir stikerga almashish orqali so'ragan ishtirokchi ismi yozilgan stikerni berishlari maqsadga muvofiqligi tushuntiriladi. Qisqacha "tekinga hech kimga hech narsa bermaslik" so'raladi. O'z ismlari yozilgan stikerlarning har to'ttasini ham birinchi, ikkinchi, uchinchi bo'lib topgan va olishga muvaffaq bo'lgan ishtirokchilar g'olib dep topiladi. Ushbu mashg'ulot uchun ularga (ishtirokchilar soniga qarab) 10-20 daqiqa berish mumkin. Mashg'ulot to'liq tugagach g'oliblardan o'z taasurotlari va tajribalari bilan o'rtoqlashish ya'ni qanday qilib tezda o'z ismi yozilgan stikerlarni qo'lga kiritganligini, qanday strategiya qo'llaganliklarini aytib berish so'raladi. Bundan so'ng esa, kimlar oxirida qolib ketishgan bo'lishsa, ulardan nimalarda qiyinchilikka uchraganliklari va ularga tezda stikerlarini yig'ib olishga nima halal bergenini aytib berish so'raladi.

Trening o'tkazuvchi o'qituvchi xulosa o'rnida quyidagilarni ta'kidlab o'tishi joizki, ushbu mashg'ulotdan ishtirokchilar insonlar bilan muloqotga kirishishda va ular bilan ma'lum bir aloqa o'rnatishda o'zidagi qanday ko'nikma va hislatlardan foydalanishi mumkinligini shuning bilan birgalikda, o'zida qo'shimcha yana qanday kommunikativ bilim va ko'nikmalarni shakllantirishlari hamda rivojlantirishlari lozimligini bilib olishlari kerak.⁵

"Men kimman?" kommunikativ mashqimizning maqsadi: bo'lajak o'qituvchilarda axborotni uzatish va uni qayta ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ularagi taranlikni yumshatish maqsadida yumoristik obrazlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish. Trening yo'riqnomasi quyidagilardan iborat: guruh a'zolari bir-birlarini yaxshi taniganliklari va 2-3-4 yil davomida bir-birlari haqida ancha-muncha informatsiyaga ega bo'lganliklari uchun va ananaviylikdan qochish maqsadida mazkur o'yin trening dasturiga kiritilishi maqsadga muvofiq. Bunda trener dastlab guruh a'zolariga "u narsa aslida sizga tegishli, lekin undan o'zingizdan ko'ra boshqalar ko'proq foydalanadi" degan topishmoq bilan murojaat qiladi. Albatta bu topishmoqning javobi: o'z ismimizdir. Lekin hozir bizga o'zimizning ismimiz bilan emas balki mashxur insonlar va mashxur obrazlar, qahramonlar ismi bilan murojaat etishadi. Buning uchun har bir ishtirokchining orqasiga (o'ziga ko'rinchiligi qilib) uning yangi ismi yopishtirib qo'yiladi va uni doira o'rtasiga taklif qilinadi. Qolgan

⁵ Л. Бекназарова, М. Махмудова, Б. Шодиев. Ижтимоий-психологик тренинг. (*Илмий-услубий қўйлланма*) tafakkur qanoti. Т.:2016. – 112 б.



guruh a'zolari esa turli yaqinlashtiruvchi belgilar va hokazolarni aytgan holda (faqt to'g'ridan to'g'ri gap kim haqida ketayotganligini aytish mumkin emas) o'z guruhdoshlariga yordam beradilar. Shu tariqa hamma galma-galdan doira o'rtasiga taklif etilib o'zlarining yangi ismlarini bilib oladilar.

Xulosa o'mida shuni takidlash joyizki, samarali kommunikativlik xususiyatiga ega bo'lish pedagog hayotidagi eng zarur qobiliyat hisoblanadi. Chunki kommunikativlik nafaqat ta'lim sohasida, balki shaxsiy munosabatlarimizda ham omad kalitidir. Muvaffaqiyatli kommunikatsiya uchun esa eng yaxshi murabbiy — hayot. Siz ushbu maqola orqali bir necha kommunikatsiya modellari bilan tanishish orqali qanday qilib olg'a intilish sirlarini bilib olasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Emelyanov Yu.N. Kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish va takomillashtirish amaliyoti nazariyasi. - M.: Ta'lim, -1995.
2. Zaxarova T.V. Qobiliyat yondashuvi ta'lim mazmunini yangilash bosqichi sifatida // KrasSU Axborotnomasi. Gumanitar fanlar. - 2006.
3. Zimnyaya I.A. Vakolatli yondashuv. Ta'lim muammolariga yondashuvlar tizimida uning o'rni qanday / I.A. Qish // Bugungi kunda oliy ma'lumot. - 2006.
4. Л. Бекназарова, М. Махмудова, Б. Шодиев. Ижтимоий-психологик тренинг. (*Илмий-услубий қўлланма*) tafakkur qanoti. Т.:2016. – 112 б.